
Nikoh shartnomasi nima?

Nikoh shartnomasi bu nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy xuquki xamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Nikohni tugatish mobaynida tartibga solinishi eng qiyin bo'lgan masalalardan biri bu mulkning bo'linishidir. Nikoh shartnomasi asosan mulk bo'linishi va majburiyatlar taqsimlanishi qay tartibda amalga oshirilishini oldindan belgilab beradi. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar xam, shuningdek, nikoh davrida xam tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Albatta, mumkin. Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor kilinishi mumkin. Taraflarning biri bunga rozi bo'lmasa, ulardan birining nikoh shartnomasi bilan xukuki cheklangan xolatda ikkinchi tomon sudga murojaat kilishi mumkin. Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amao kilishi xam tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno. Er yoki xotindan biri vafot etganda meros ochiladi. Agar ular nikoh shartnomasi tuzgan bo'lsa, marxum er yoki xotindan biri nikoh davri davomidagi orttirilgan mulkning $\frac{1}{2}$ ulushiga nisbatan mulk xukukiga da'vo qilishga haqdi emas. Chunki, ular nikoh shartnomasi bilan nikoh davomidagi orttirilgan umumiy mol mulkning shartnomaviy tartibini belgilab bo'lg'an. Amaldagi konunchilik xujjatiga asosan nikoh shartnomasi o'z xarakteriga ko'ra shaxsan tuzilishi mumkin bo'lgan fukarolik-xukukiy bitim qatoriga kiradi. Ushbu shartnoma fakat er va xotin ishtirokida shaxsan tuziladi. Shuning uchun ushbu shartnoma konuniy vakillari shartnoma konuniy vakillari orkali xam rasmiylashtirish mumkin emas. Albatta, agar fukaro takdim etgan nikoh shartnomasida o'ziga tegishli mulkni tasarruf etish bilan bog'liq bitim tuzilganda turmush o'rtog'ining roziligisiz amalga oshiriladi deb belgilangan bo'lsa, er yoki xotinning roziligi talab kilinmaydi.

Zilolaxon Latipova

Xususiy notarial amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius

2024-02-16 08:19:37